

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rirlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 36 685,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 37 119,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,4 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHM ni shakllantirishda Navoiy viloyatining qo'shgan xissasi 7,2 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018-yil yanvar-dekabriga nisbatan, % da
	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr	
<b>I. YaHM</b>	<b>22 132,2</b>	<b>36 685,2</b>	<b>105,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	21 399,8	35 599,6	105,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	732,4	1 085,6	106,0
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>21 399,8</b>	<b>35 599,6</b>	<b>105,2</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 050,7	5 954,2	102,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	12 930,6	25 374,8	106,7
sanoat	11 944,7	23 779,6	104,5
qurilish	985,9	1 595,2	133,0
Xizmatlar	3 418,5	4 270,6	103,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	951,7	1 121,8	103,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	647,6	702,0	101,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 819,2	2 446,8	104,8

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,3 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 16,7 %), sanoat - 104,5 % (66,8 %), qurilish -133,0 % (4,5 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar–103,1 % (3,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 101,8 % (2,0 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar–104,8% (6,8 %) ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-dekabrida  
YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha o'sish sur'atlari.**




**IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI**

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.


Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 10,9 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 71,3% ni tashkil etdi.Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 2019-yilning yanvar-dekabrida 16,7 % ni tashkil etdi va 2018-yilning mos davri (23,6 %) bilan taqqoslanganda 6,9 % punktga, xizmatlar sohasi 12,0 % ni tashkil etdi va 2018-yilning mos davri (16,0 %) bilan taqqoslanganda 4,0 % punktga kamaydi.

### **Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

**2018 yil yanvar-dekabr**



**2019 yil yanvar-dekabr**




- Mahsulotlarga soʻf soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 3,2 % ni (2018-yil yanvar-dekabr – 4,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 2,0 % ni (3,0 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 6,8 % ni (8,6 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan % da) :**

**2018 yil yanvar-dekabr**



**2019 yil yanvar-dekabr**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar